Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikramovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI ANIQLOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI HAMDA SAMARADORLIKNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI

Ruzmetov Davron Ibrogimovich

Urganch RANCH Texnologiya universiteti

xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori

d.ruzmetov@utu-ranch.uz

<https://orcid.org/0009-0002-2301-8636>

Saburov Javohir Kaxramon o'g'li

Urganch RANCH Texnologiya

Universiteti magistranti

soburov2912@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-8949-2685>

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimi hamda ularni chuqur tahlil qilishning dolzarbligi yoritilgan. Iqtisodiy samaradorlikni aniq va ishonchli baholashda ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda tahlil natijalarining boshqaruv qarorlariga ta'siri keng muhokama qilingan. Shuningdek, samaradorlikni baholashda ekonometrik modellash tirish yondashuvining obyektiv zarurligi asoslab berilgan. Mazkur modellar yordamida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, rentabellik, foyda darajasi kabi muhim omillar prognoz qilinishi mumkinligi hamda bu orqali korxona faoliyatini strategik boshqarishni takomillashtirishga erishish imkoniyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar, shuningdek sanoat tarmog'ida qo'llanilgan amaliy misollar asosida olingan tahliliy natijalar asosli tarzda keltirilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, sanoat korxonalari, ko'rsatkichlar tahlili, ekonometrik modellash tirish, rentabellik, iqtisodiy tahlil, boshqaruv qarorlari.

Abstract: This article highlights the system of key indicators used in assessing the economic efficiency of industrial enterprises and the relevance of conducting a comprehensive analysis of these indicators. The theoretical foundations of using a system of indicators for accurate and reliable assessment of economic efficiency, their interrelationships, and the impact of analysis results on managerial decision-making are discussed. The article also substantiates the objective necessity of applying econometric modeling approaches in evaluating efficiency. It is demonstrated that such models can be used to forecast key factors such as production resource utilization efficiency, profitability, and profit levels, thereby improving the strategic management of enterprise activities. The article presents scientific views advanced by foreign and local researchers, as well as the results of analysis based on practical examples applied in the industrial sector.

Key words: Economic efficiency, industrial enterprises, indicator analysis, econometric modeling, profitability, economic analysis, management decisions.

Аннотация: В статье раскрыта система основных показателей, используемых для оценки экономической эффективности промышленных предприятий, а также актуальность их углубленного анализа. Рассматриваются теоретические основы применения системы показателей для точной и достоверной оценки эффективности, их взаимосвязь и влияние результатов анализа на управленческие решения. Обоснована объективная необходимость использования эконометрического моделирования в процессе оценки эффективности. Показано, что с помощью таких моделей можно прогнозировать важные факторы, такие как эффективность использования производственных ресурсов, рентабельность и уровень прибыли, что способствует совершенствованию стратегического управления деятельностью предприятий. В статье представлены научные взгляды зарубежных и отечественных исследователей, а также результаты анализа, основанные на практических примерах в промышленности.

Ключевые слова: Экономическая эффективность, промышленные предприятия, анализ показателей, эконометрическое моделирование, рентабельность, экономический анализ, управленческие решения.



KIRISH

Sanoat korxonalarining izchil rivojlanishi va bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning raqobatbardoshligi ko'p jihatdan iqtisodiy samaradorlik darajasiga bog'liqdir. Har qanday ishlab chiqarish subyekti uchun strategik yo'nalishlarni belgilashda mavjud faoliyat natijalari hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi keng qamrovli va murakkab mazmunga ega bo'lib, u korxona faoliyatining real va potentsial natijalarini baholash imkonini beruvchi asosiy ko'rsatkich sifatida qaraladi [1]. Bunda e'tibor asosan faoliyatdan olinayotgan iqtisodiy natijalarning sifat va miqdoriga qaratiladi. Samaradorlikning mohiyati esa korxona tasarrufidagi resurslardan oqilona, samarali va maqsadli foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Bu holat sof foyda miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ya'ni, foyda darajasini oshirish resurslar bilan muvozanatli va ratsional ishlash orqali ta'minlanadi.

Iqtisodiy samaradorlik, asosan, korxona tomonidan iste'mol qilingan moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari hisobiga erishilgan yakuniy natijalar bilan bog'liq nisbiy ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Bugungi global iqtisodiyotda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida chuqur qayta ishlash yo'nalishi barqaror o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan birga, ijtimoiy taraqqiyotga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha yillik 4 milliard tonnadan ortiq sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilayotgani ushbu sohada samaradorlikni oshirish, ekologik xavfsizlikka rioya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratini kuchaytirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, agrar sektorning sanoat bilan uyg'unlashuvi, ishlab chiqarishdan tortib xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan butun zanjirda mahsulot sifatini tizimli boshqarish, qo'shilgan qiymat yaratish bosqichlarining har birini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bunday integratsion yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va jamiyatning umumiy iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonada mavjud resurslardan foydalanib, belgilangan strategik va operatsion maqsadlarga qanday darajada erishilayotganini ifodalovchi asosiy mezonlardan biri bu – iqtisodiy samaradorlikdir. Ushbu tushuncha ishlab chiqarish hajmi, sof foyda miqdori, resurslardan foydalanish darajasi, mahsulot sifatining barqarorligi hamda mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.

MDH davlatlari olimlari bu masalaga alohida ilmiy e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, S.B. Avdasheva, N.K. Vodomerov, A.P. Tyapuxin, S.I. Ojegov, S.D. Ilenkova, S. Glazyev, A.G. Granberg, V.V. Ivanter, N.Ya. Petrakov kabi tadqiqotchilar o'z izlanishlarida sanoat korxonalarining samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritganlar [3].

Shu bilan birga, O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'ida resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi va rentabellikni oshirish masalalari N.I. Saidaxmedova, R.H. Hakimov, M.A. Rahmatov, M.A. Karimov, B.T. Salimov, T.T. Jo'raev, A.S. Yusupov, R. Xalikova, B.F. Tolipova va M. Murodova kabi olimlarning ilmiy ishlari orqali chuqur o'rganilgan [4].

Ilmiy tadqiqotchi A.T. Trofimova sanoatdagi samaradorlikni baholashda yagona ko'rsatkich emas, balki o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi asosida yondashish zarurligini ta'kidlaydi. U mehnat unumdorligi, kapital rentabelligi, material sarfi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari va ish haqi intensivligi kabi parametrlarni kompleks baholashni taklif etadi. Bunday metodologiya korxonaning strategik holatini aniqlashda keng imkoniyatlar yaratadi [5].

Shu bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni yagona universal mezon orqali baholashning imkonsizligi xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy faoliyatini ob'yektiv tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Amaliyotda ko'proq foyda miqdori va foyda-xarajat nisbati kabi indikatorlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar, asosan, alohida loyihalar yoki faoliyat yo'nalishlarining investitsiyaviy samaradorligini aniqlashga xizmat qiladi. Biroq ular korxonaning umumiy holatini to'liq yoritib bera olmaydi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda ko'p omilli yondashuv, kompleks indikatorlar tizimidan foydalanish hamda statistik va ekonometrik modellar orqali tahlil olib borish zamonaviy ilmiy-analitik yondashuv sifatida o'z ahamiyatini tobora oshirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun ma'lumotlar sanoat korxonalarining moliyaviy hisobotlari, statistik yig'ma ma'lumotlar hamda Davlat statistika qo'mitasi bazalaridan olindi. Olingan raqamli ko'rsatkichlar korrelyatsion-regression tahlil usuli asosida qayta ishlanib, sanoat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ARIMA va ko'p omilli ekonometrik modellar orqali baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonasining samarali ishlashi, eng avvalo, mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari evaziga erishilayotgan natijalarning o'zaro muvozanatiga asoslanadi. Resurslardan tejamkor va oqilona foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, natijada esa daromadlar hajmini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Bunda ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichi puxta rejalashtirilgan va aniq mexanizm asosida tashkil etilgan bo'lishi zarur. Har bir ishchi va xodim o'z zimmasidagi vazifani chuqur anglab, o'z faoliyatining yakuniy samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatishini tushunmog'i lozim. Ana shu yondashuv ijobiy natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Korxonaning strategik rivojlanishi uning uzoq muddatli maqsadlarini belgilash, ularni amalga oshirish bosqichlari va muddatlarini aniq belgilashga chambarchas bog'liq. Iqtisodiy samaradorlik – bu iqtisodiy natijalar (foyda) bilan ularni yuzaga keltirgan xarajatlarning o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi mezon bo'lib, u korxona faoliyatining samaradorligini baholashda muhim o'rin tutadi. U resurslardan (moliyaviy, mehnat va moddiy) qay darajada unumli foydalanilganini aniqlash orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning oshishiga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi deganda korxona tomonidan erishilgan iqtisodiy natijalarni ularga sarflangan resurslar bilan solishtirish orqali aniqlanadigan ko'rsatkichlar tushuniladi. Bu baholash jarayonida mehnat resurslari, ishlab chiqarish vositalari, aylanma va asosiy fondlar, texnik hamda iqtisodiy omillar va ijtimoiy sharoitlar inobatga olinadi. Tahlil natijasida, bir tomondan, mavjud imkoniyatlardan qanday natijalar olingani aniqlanadi, ikkinchi tomondan esa, ularni kelajakda qanday oshirish mumkinligi baholanadi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligi, ayniqsa uning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi asosan faoliyat samaradorligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichi investorlar, biznes hamkorlar va mulkdorlar uchun korxonaning ishonchiligi hamda moliyaviy jozibadorligini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli, korxonaning o'tgan davr, joriy faoliyat va istiqboldagi moliyaviy holatini muntazam ravishda tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Samaradorlikka erishishda muhim prinsip — mavjud resurslardan eng kam xarajat bilan maksimal foyda olishga intilishdir. Boshqacha aytganda, mahsulot birligining tannaxsini pasaytirish orqali umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga erishish mumkin. Shuningdek, raqobat kuchli bo'lgan hozirgi sharoitda har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining samaradorligini oshirish uchun asosiy ichki va tashqi omillarni chuqur o'rganishi, tahlil qilishi va ularga asoslangan strategiyalar ishlab chiqishi zarur.

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorlik darajasini baholashning bosh maqsadi – mavjud holatni tahlil qilish orqali uni takomillashtirishga xizmat qiluvchi aniq taklif va chora-tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat. Bu jarayonda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar odatda quyidagi uch toifaga bo'linadi:

Mutlaq ko'rsatkichlar – sof foyda, ustav kapitali, aktivlar hajmi kabi aniq miqdoriy ifodalar;

Nisbatli ko'rsatkichlar – iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi indikatorlar (masalan, foydalilik koeffitsiyenti, rentabellik, likvidlilik darajasi);

O'rtacha ko'rsatkichlar – o'rtacha ish haqi, bitta ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi yoki daromad, mahsulot birligining xarajati va boshqalar.

Natijada, korxonaning mahsulot sifati barqaror saqlanishi, resurslardan samarali foydalanilishi hamda daromadlarning izchil o'sib borishi uning muvaffaqiyatli va samarali faoliyat yuritayotganining asosiy belgisi sifatida qaraladi.

Korxona faoliyatining natijadorligini aniqlashda asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari muhim o'rin tutadi. Odatda bu ko'rsatkichlar korxonaning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Agar bunday kengash mavjud bo'lmasa, vakolat yuqori boshqaruv organiga yoki davlat korxonalari misolida muassislik huquqiga ega subyektga yuklatiladi.

Baholash mezonlari sifatida bir qator ko'rsatkichlar inobatga olinadi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: sof tushum va sof foyda miqdori, mahsulot tannaxsini kamaytirish darajasi, moliyaviy barqarorlik va to'lovga layoqatlilik holati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'rsatkichi, tashqi iqtisodiy faoliyat (eksport-import), mahsulotlarni mahalliyashtirish darajasi, investitsiya dasturlarining bajarilish holati, energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda boshqa natijaviy ko'rsatkichlar.

Ushbu ko'rsatkichlar har chorakda monitoring qilinadi va natijalar asosida umumiy tahlil olib boriladi. Baholash jarayonida har bir ko'rsatkichning o'ziga xos ahamiyati (vazni) mavjud bo'lib, bu ulush og'irlik koeffitsienti orqali ifodalanadi. Har bir mezon uchun belgilangan prognoz qiymatlar asosida bajarilish darajasi aniqlanadi. Hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi: indikator bajarilish darajasi mos koeffitsientga ko'paytiriladi va barcha natijalar yig'indisi 100 ga nisbatan ifodalanadi. Natijada, umumiy samaradorlik darajasi – ya'ni KPI (Kalit Ko'rsatkichlar Indeksi) shakllantiriladi.

Amaldagi baholash tizimida 13 ta asosiy hamda 18 ta qo'shimcha ko'rsatkich mavjud. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu mezonlar bazasini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, moliyaviy mustaqillik darajasi va to'lovga qobiliylik koeffitsienti korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi muhim



mezonlar sifatida alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, rentabellik darajasi korxonaning iqtisodiy samaradorligini aniqlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida amalga oshirilgan tahlillar orqali korxonaning ustun jihatlari, zaif tomonlari va istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar aniqlab olinadi (1-jadval).

1-jadval. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir qiluvchi omillar tasnifi¹.

Ko'rsatkichlar kategoriyasi	Tavsif
Umummilliy (xalq xo'jaligi)	Investitsiya siyosati, ilmiy-texnik taraqqiyot, hamda umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari.
Tarmoq darajasidagi	Tarmoqning bozor holati, uning milliy iqtisodiyotdagi struktura va o'rni.
Hududiy (geografik)	Hududning joylashuvi, iqlim sharoitlari, bozor imkoniyatlari va investitsiyaviy jozibadorligi.
Ekstensiv omillar	Resurslar hajmining o'sishi: xomashyo, materiallar, energiya, yoqilg'i va ishchi kuchi.
Intensiv omillar	Mehnat unumdorligi, asosiy fondlar, kapital va materiallar samaradorligi oshishi; resurs sig'imining kamayishi.
Umumiy ishlab chiqarish	Ishlab chiqarish texnologiyasi va tarmoq xususiyatlari, moddiy-texnik bazaning holati.
Tashkiliy-strukturaviy	Ta'minot, ishlab chiqarish, boshqaruv va sotuv tizimlarining tashkiliy shakllari va o'zaro aloqalari.
Maxsus omillar	Tashqi xavf va noaniqlik omillarining ta'siri.
Ichki boshqaruv omillari	Boshqaruv strukturasining samaradorligi, boshqaruv uslublari va vositalari uyg'unligi, avtomatlashtirish darajasi, xodimlar malakasi va mehnat unumdorligi.

Samaradorlikka oid indikatorlarni to'g'ri tanlab olish korxonaning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini obyektiv baholashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kompleks yondashuv asosida olib borilgan baholash amaliyoti korxona faoliyatining holatini to'liq va ishonchli tarzda aks ettirish imkonini beradi. Ilmiy-amaliy kuzatuvlar asosida aytish mumkinki, samaradorlikni aniqlashda umumiy va xususiy ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan mavjud resurslardan qanday foydalanilayotganiga bog'liq bo'lib, bu holat tegishli ko'rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Xususan, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasi, ayniqsa asosiy vositalar, moddiy-texnika resurslari hamda mehnat kuchi samaradorligiga oid statistik ko'rsatkichlar orqali baholanadi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi odatda fond qaytimi va fond sig'imi kabi indikatorlar orqali o'lchanadi. Ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan bino, inshoot, uskunalar kabi asosiy elementlar kesimida alohida tahlil qilinadi. Bu esa korxonaning ishlab chiqarish infratuzilmasi samaradorligini aniq baholash, zaxiralardan foydalanish holatini tahlil qilish va mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi (2-jadval).

2-jadval. Sanoat korxonalarida samaradorlik ko'rsatkichlarini ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimi [6]².

№	Ko'rsatkichlar	Umumiy ko'rsatkichlar	Aniqlanish tartibi	Xususiy ko'rsatkichlar	Aniqlanish tartibi
1.	Asosiy vositalardan samarali foydalanish	Fond qaytimi	MH / AV_{ort}	Bino qaytimi	MH / B
			Inshootlar qaytimi	MH / I	
			Asbob-uskunalar qaytimi	MH / AU	
			Transport vositalari qaytimi	MH / TV	
			Kompyuter texnikasi qaytimi	MH / KT	
			Boshqa asosiy vositalar qaytimi	MH / BAV	
	Fond sig'imi	AV_{ort} / MH	Bino sig'imi	B / MH	
			Inshootlar sig'imi	I / MH	
			Asbob-uskunalar sig'imi	AU / MH	
			Transport vositalari sig'imi	TV / MH	
			Kompyuter texnikasi sig'imi	KT / MH	
			Boshqa asosiy vositalar sig'imi	BAV / MH	

1 Абдужаборова М.Т. (2023). Корхоналарнинг хўжалик фаолияти самарадорлиги таҳлили. International Journal of Finance and Digitalization asosida muallif ishlanmasi

2 Абдужаборова М.Т. (2023). Корхоналарнинг хўжалик фаолияти самарадорлиги таҳлили. International Journal of Finance and Digitalization asosida muallif ishlanmasi



2.	Moddiy resurslardan samarali foydalanish Material sig'imi		Material qaytimi	MH / MR	Xom ashyo qaytimi	MH / XA	
				MR / MH	Yoqilg'i qaytimi	MH / Y	
					Energiyani qaytarish	MH / E	
					Inventar qaytimi	MH / I	
					Xom ashyo sig'imi	XA / MH	
		Yoqilg'i sig'imi	Y / MH				
		Energiya sig'imi	E / MH				
		Inventar sig'imi	I / MH				
3.	Mehnat resurslaridan samarali foydalanish	Natura o'lchov birlikda:	Mehnat unumdorligi (bir xodim)	MH _{no'b} / X	1 Ishchining mehnat u.	MH _{no'b} / I	
					1 Xizmatchining mehnat u.	MH _{no'b} / X	
		Qiymat o'lchov birligi:	Mehnat unumdorligi (bir xodim)	MH / X	1 Ishchining mehnat u.	MH / I	
					1 Xizmatchining mehnat u.	MH / X	
		Mehnat o'lchov birligi:	Mehnat unumdorligi	MH / V	1 Kunlik mehnat unumdorligi	MH / K	
					Soatlik mehnat unumdorligi	MH / S	

Belgilar izohi: **MH** – mahsulot hajmi, **AVoʻrt** – asosiy vositalarning oʻrtacha yillik qiymati, **B** – bino, **I** – inshoot, **AU** – asbob-uskunalar, **TV** – transport vositalari, **KT** – kompyuter texnikasi, **BAV** – boshqa asosiy vositalar, **MR** – moddiy resurslar, **XA** – xom ashyo, **Yo** – yoqilgʻi, **E** – energiya, **I** – inventarlar, **MHn**öb**** – mahsulot hajmi natura oʻlchov birligida, **X** – xodim, **V** – vaqt, **K** – kunlar, **S** – soatlar.

Fond qaytimi – mahsulot hajmining asosiy vositalar qiymatiga nisbati orqali, fond sig'imi esa aksincha – asosiy vositalarning mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi. Ushbu yondashuv korxonaning mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalangan holda qanday darajada samarali mahsulot ishlab chiqara olayotganini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, moddiy resurslardan foydalanish darajasi material qaytimi va material sig'imi ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Bu yerda xom ashyo, energiya resurslari, yoqilg'i, yordamchi materiallar hamda ishlab chiqarishda zarur bo'lgan boshqa resurslarning har biri alohida tahlil qilinadi. Ushbu ko'rsatkichlar yordamida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi.

Mehnat resurslari samaradorligi esa, asosan, mehnat unumdorligi orqali ifodalanadi. Bu ko'rsatkich bir ishchiga yoki xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi, shuningdek ish kunidagi yoki soatlik ishlab chiqarish ko'lami bilan aniqlanadi. Ish kuchidan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarish hajmiga, balki korxonaning umumiy moliyaviy natijalariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida tilga olingan barcha ko'rsatkichlar sanoat korxonasining ichki zahiralari aniqlash, mavjud imkoniyatlarni baholash hamda resurslardan optimal foydalanishni yo'lga qo'yish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish maqsadida, hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga asoslangan yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bunda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish orqali mahsulotga qo'shiladigan qiymatni oshirish, shuningdek, bu boradagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo'nalishida qator kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategik dasturida sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish, mintaqalarning ishlab chiqarish salohiyatini to'liq ishga solish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Unga ko'ra, yaqin yillarda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard AQSh dollariga yetkazish, 2,5 million yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, shuningdek korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bo'yicha aniq choralar belgilangan. Shu bilan birga, kooperatsion aloqalarni yo'lga qo'ygan xo'jalik yurituvchi subyektlarni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 9-sentabrdagi "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4821-son³li qarorida oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish, soha infratuzilmasini

3 <https://lex.uz/docs/-4990322>




rivojlantirish va tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash orqali sanoat samaradorligini baholash muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Bu jarayonda, ayniqsa, ekonometrik modellashirish vositasida ishlab chiqarish hajmi, investitsiya samaradorligi, qo'shilgan qiymat va eksport imkoniyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, qayta ishlash sanoatini jadallik bilan rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va qarorlar raqamli texnologiyalar yordamida samaradorlikni tahlil qilish, resurslarni maqbul taqsimlash hamda asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini bermoqda.

Mazkur yondashuv boshqaruv samaradorligini oshirishda innovatsion turtki bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son'li Farmonida esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, 2019–2021-yillar davomida xorijiy moliyaviy institutlar mablag'lari hisobidan yirik agrologistika majmualarini barpo etish bo'yicha aniq amaliy rejalar ishlab chiqilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. [8]



1-rasm. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi: hududlar kesimida (yillik) [9].

So'nggi besh yil ichida, ya'ni 2019–2023-yillar davomida sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining tahlili bu yo'nalishlarda barqaror iqtisodiy o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2019-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 322,5 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 658,9 milliard so'mga yetgan. Bu esa besh yil ichida sanoat ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki baravar oshganini anglatadi.

Kuzatilgan bu barqaror o'sish sanoat sohasida olib borilgan tizimli islohotlar, ishlab chiqarish bazasining kengaytirilishi, texnologik yangilanish va modernizatsiya jarayonlari hamda investitsiyaviy faollikning oshgani



bilan izohlanadi. Korxonalarning texnik qayta jihozlanishi va samaradorlikka yo'naltirilgan boshqaruv yondashuvlari natijasida ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada ortdi.

Shu bilan birga, sanoatning yangi tarmoqlarga diversifikatsiya qilinishi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor kuchaytirilgani ham o'sishning muhim omillari sifatida qaralmoqda. Mazkur davr mobaynida sanoat va oziq-ovqat sektorlarida barqaror o'sish sur'atlarining kuzatilishi mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar samaradorligidan dalolat beradi va bu yo'nalishdagi islohotlarning izchil davom ettirilishi zarurligini tasdiqlaydi [10].

Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish tarmoqlari orasida yengil sanoat O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarmoq nafaqat tashqi savdo salohiyatini oshirishda, balki aholini ish bilan ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Ichki va tashqi bozorlarda yengil sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabning uzluksiz ortib borishi bu sohaning barqaror rivojlanishini taqozo etmoqda.

Ikkala tarmoqda ham yuqori natijalarga erishish uchun samaradorlikni oshirish masalasiga tizimli va ilmiy yondashuv zarur. Bunday yondashuvda ekonometrik modellardan foydalanish dolzarb zaruratga aylangan. Ushbu modellar resurslar taqsimotining optimal variantlarini aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni o'rganishda keng qo'llaniladi.

Birinchidan, samaradorlik darajasini aniq baholash korxonalariga o'z ishchi kuchi, xomashyo, moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish quvvatlarini eng yuqori natija keltiradigan tarzda taqsimlash imkonini beradi. Ayniqsa, R. Solouning ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan yondashuvi resurslar samaradorligini tahlil qilishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metod orqali ishlab chiqarish hajmi, qo'llanilgan resurslar va chiqish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik statistik jihatdan aniqlanadi.

Ikkinchidan, yengil sanoat hamda oziq-ovqat sanoatida xarajatlar tuzilmasi, ayniqsa mehnat haqi va xomashyo xarajatlari, korxonaning umumiy rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ekonometrik modellastirish orqali xarajatlar miqdori bilan ishlab chiqarish hajmi va foyda o'rtasidagi nisbatlar tahlil qilinib, optimal xarajat siyosati shakllantiriladi. Bu esa mahsulot tannarxini kamaytirish va foyda darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, bunday tahlil usullari innovatsion faoliyat samaradorligini baholashga ham imkon yaratadi. Masalan, oziq-ovqat tarmog'iga yangi texnologiyalarni joriy etish mahsulot sifatining oshishiga, tannarxning kamayishiga va ekologik talablarning bajarilishiga olib keladi. Ekonometrik yondashuv esa ushbu jarayonlarning natijalarini aniq raqamlar orqali ifodalash imkonini beradi. Bu esa sarmoyadorlar uchun tavakkal darajasini kamaytirish va investitsiya samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida aniqlanishicha, sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash, uni oshirish yo'llarini aniqlash va resurslardan oqilona foydalanish masalalari bugungi raqobatbardosh bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy va tashkiliy salohiyati mavjud resurslar – mehnat, moliyaviy, moddiy va texnik vositalar – samarali boshqarilgan taqdirdagina kutilgan natijalarga olib keladi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashda faqat alohida ko'rsatkichlarga tayanish emas, balki ularning kompleks va o'zaro bog'liq tizimini qo'llash zarur. Resurslar taqsimoti va ularning mahsuldorlikka ta'sirini chuqur o'rganish orqali korxonalar o'z ichki imkoniyatlarini yanada aniqroq baholashlari va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'lida maqsadga muvofiq choralarni belgilashlari mumkin.

Bu jarayonda ekonometrik modellastirishdan foydalanish ayniqsa muhim bo'lib, u tahlilni faqat statistik ko'rsatkichlarga asoslash bilan cheklanmay, balki o'zgaruvchilar o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aniqlashga imkon yaratadi. R. Solouning ishlab chiqarish funksiyasi, xarajat va foyda o'rtasidagi nisbatlar, resurslarning rentabellikka ta'siri kabi yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan ekonometrik modellarning qo'llanilishi ishlab chiqarishning har bir bosqichini samarali tashkil etishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ayniqsa, mehnat va xomashyo xarajatlari yuqori bo'lgan yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida bunday tahlillarning ahamiyati yanada ortadi.

Maqolada tahlil qilingan ko'rsatkichlar – fond qaytimi, fond sig'imi, mehnat unumdorligi, xom ashyo va energiya qaytimi, iqtisodiy rentabellik va moliyaviy barqarorlik – korxonaning joriy va istiqboldagi faoliyatini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, har chorakda monitoring olib borilishi, ko'rsatkichlarga og'irlik koeffitsientlarini qo'llash orqali umumiy samaradorlik indeksi (KPI)ni shakllantirish tajribasi boshqaruv tizimining takomillashuvida alohida o'rin tutadi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun ekonometrik modellarni joriy etish. Korxonalar iqtisodiy faoliyatini chuqur tahlil qilish va asosli strategik qarorlar qabul qilish uchun ekonometrik modellar zarur. Ushbu modellar ishlab chiqarish, investitsiya va iste'mol ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash imkonini



beradi. Har bir sanoat korxonasi o'zining asosiy ko'rsatkichlariga asoslangan modellarni ishlab chiqishi va amaliyotga tatbiq etishi lozim.

2. Prognozlash jarayonida ekonometrik yondashuvlarni qo'llash. Kelajakdagi iqtisodiy tendensiyalarni aniq prognoz qilishda ekonometrik modellar muhim vositaga aylanadi. O'zgaruvchilar o'rtasidagi tahliliy aloqalarni hisobga olgan holda, korxonalar strategik rejalashtirishda aniqlikka erishadi. Modellar muntazam yangilanib, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilib borilishi zarur.

3. Mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini baholash. Resurslardan optimal foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda ekonometrik modellashtirish alohida o'rin tutadi. Korxonalar ushbu yondashuv orqali ishlab chiqarish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

4. Investitsiya strategiyalarini rivojlantirish. Bozor sharoitlari va ichki iqtisodiy muhitni tahlil qilish orqali sarmoya kiritishning eng maqbul yo'nalishlarini aniqlash mumkin. Ekonometrik yondashuvlar investitsiyalarning kutilayotgan natijalari va tavakkalchilik darajasini aniqlashtirishda korxonalarga ilmiy asoslangan echimlar taklif etadi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalari iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularning zamonaviy tahlil uslublari asosida qo'llanilishi, korxona darajasida ham, milliy iqtisodiyot miqyosida ham ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda resurslardan eng yuqori darajada foydalanishga erishish uchun zarur shart hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмеджанов А.Р. (2019). Сервис иктисодиётида самарадорлик ва унумдорликни баҳолашга услубий ёндашув. Иқтисод ва молия, 9(129), 18–27-б.
2. Avdasheva S.B., Budanov I.A., Golikova V.V., Yakovlev A.A. (2005). Modernizatsiya rossiyskix predpriyatiy v tsepochkax sozdaniya stoimosti (na primere trubnoy i mebelnoy promyshlennosti Rossii). Ekonomicheskiy zhurnal Vysshey shkoly ekonomiki, №3, 361–377.
3. Водомеров Н.К. (2003). Использование трудовой теории стоимости в анализе современной рыночной экономики: дис. ... д-ра экон. наук. – М.: МГУ им. М.В. Ломоносова. – 292 с.
4. Тяпунин А.П. (2011). Логистика: учебник для бакалавров. – М.: Издательство Юрайт. – 568 с.
5. Построение цепочки создания стоимости. Серия «Классика Nagoya Business Knowledge». – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 261 с.
6. Саидахмедова Н.И. (2019). Ўзбекистонда озиқ-овқат саноати маҳсулотларини ишлаб чиқариш тенденциялари ва муаммолари. Халқаро молия ва ҳисоб, №2, апрель.
7. Ҳақимов Р.Х. (2009). Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти. Дарслик. – Т.: ТДИУ. – 292 б.
8. Раҳматов М.А., Зарипов Б.З. (sana ko'rsatilmagan). Кластер – интеграция. [To'liq manba ma'lum emas – aniqlashtirish kerak.]
9. Трофимова А.Т. (2005). Особенности методики оценки экономической эффективности производства в современных условиях. Вестник ТГАСУ, №2, 60–61 с.
10. Абдужаборова М.Т. (2023). Корхоналарнинг хўжалик фаолияти самарадорлиги таҳлили. International Journal of Finance and Digitalization asosida muallif ishlanmasi.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risidagi farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06/25/56/0274-son.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/24/67/0307-son.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-sonli qarori "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
14. FAO (BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) hisobotiga asosan. URL: <https://www.fao.org/land-water/land/landgovernance/land-resources-planning-toolbox/category/details/fr/c/1029516/>
15. Davlat statistika qo'mitasi – sanoat ko'rsatkichlari jadvali. URL: <https://siat.stat.uz/reports-filed/604/table-data>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>